



JAMIYATDA INTERNET-MAKON KONTENTLARI TA'SIRIDA SODIR  
BO'LAYOTGAN NEGATIV IJTIMOIYLASHUV SHAKLLARI

**Nomozov Xurshid Shavkat o'g'li**

*Axborot texnologiyalari va menejment universiteti  
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) v.b.dotsent*

[Tel:+998914680710](tel:+998914680710)

*E-mail:nomozovnomozov2@gmail.com*

<https://orcid.org/0009-0007-6640-284>

Shaxs ijtimoiylashuvi nuqul ijobiy xususiyat va yo'nalishga ega bo'lgan jarayon emas. Jamiyat a'zosi o'z umri davomida nafaqat ijobiy va progressiv xarakterdagi, balki salbiy va regressiv xususiyatga ega bo'lgan bilim va g'oyalar, qadriyatlar va normalarni ham o'zlashtirishi mumkin. Ularning birinchisi *pozitiv sotsializatsiya* deb atalsa, ikkinchisi *negativ sotsializatsiya* deyiladi. Ijtimoiylashuvning birinchi ko'rinishi umumijtimoiy maqsad va manfaatlarga xizmat qiladigan ijtimoiy tajribalarning o'zlashtirilishi bilan intiho topsa, ikkinchisi jamiyat a'zosini salbiy, g'ayriijtimoiy tajribalar sari yetaklab keladi.

Shaxs ijtimoiylashuvining u yoki bu yo'nalishdan ketishi o'z-o'zidan sodir bo'ladigan jarayon emas. Bunga turtki beradigan aniq omillar mavjud. Masalan, jamiyatdagi sog'lom ma'naviy-ruhiy muhit, davlatning adolatli va oqilona siyosati, makroiqtisodiy barqarorlik, oila, mahalla va mehnat jamoalaridagi maqbul vaziyat, ijtimoiy soha obyektlarining funksional layoqatliligi, yuksak ma'naviy madaniyat – bularning barchasi pirovardida pozitiv ijtimoiylashuv uchun shart-sharoit yaratadi. Aksincha, mazkur subyektlardagi har qanday salbiy tendensiya, ularning turg'unligi yoki tanazzuli shaxs ijtimoiylashuviga negativ tus beradi.

Internet-makon shaxs ijtimoiylashuvining psixologik va ijtimoiy mexanizmlarini harakatga keltiruvchi ijtimoiy institutga aylangani bois u boshqa subyektlar kabi ham pozitiv, ham negativ ijtimoiylashuv manbaiga aylanmoqda. Bir tomondan, avvalgi paragrafda ochib berilganidek, shaxs uning yordamida turli iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy bilim va faoliyat normalarini o'zlashtirmoqda, madaniy saviyasini yuksaltirmoqda, ijtimoiy jarayonlar va shaxslararo muloqotda ishtirok etmoqda. Biroq, ikkinchi tomondan, internet-makonning ayrim kontentlari salbiy xarakterdagi ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirishga imkon yaratmoqda. Buni quyidagilarda ko'rish mumkin.

*Birinchidan*, internet-makonning ayrim kontentlari jamiyat a'zolari o'rtasida kechadigan muloqotga virtual tus bermoqda. Tarixiy taraqqiyotning barcha davrlarida muloqot shaxs ehtiyojlarini qondirishning asosiy vositalaridan biri bo'lib kelgan. Uning davomida inson boshqa jamiyat a'zolari bilan emotsional, intellektual, ma'naviy, ijtimoiy qadriyatlarni almashingan.<sup>20</sup> Bunday muloqot kechishi uchun sheriklar mavjud bo'lishi taqozo qilinadi,

<sup>20</sup> Каранг: “О понятии “общение” // Социальная педагогика, 2016, №1-2.- 33-с.



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



albatta. Ular bilan aloqalar esa turli shakllarda sodir bo'lishi mumkin. Bizning davrimizga kelib, internet-makon ham shaxslararo muloqot maydoniga aylandi. Buning natijasida jamiyat a'zolarining real muloqot uchun sarflagan vaqtlari davomiyligi kamayib, internet-makonda, jumladan shaxslararo muloqotni amalga oshirish imkonini beradigan ijtimoiy tarmoqlarda o'tkazgan vaqti davomiyligi oshib bormoqda. (Biz birinchi bobda bu vaqt miqdori bir o'rtacha foydalanuvchi uchun sutkasiga yetti soatga yetganini aytib o'tdik). Boshqacha aytganda, zamona kishisining o'zgaralar bilan muloqoti tobora virtuallashib bormoqda.

Yuzaki qaraganda, bunday o'zgarishlar jiddiy tashvish tug'dirmaydigandek ko'rinadi. Aslida esa muloqotning virtuallashuvi shaxs do'stlarining ham virtuallashuviga, real muloqot tanqisligiga, real muloqot malakalarining zaiflashuviga olib kelmoqda. Bugungi kunda aksariyat jamiyat a'zolarining virtual do'stlari miqdori real do'stlar sonidan ko'proq bo'lib qolmoqda. Shuning uchun bir binoda jamlangan bir necha kishi ayni paytda real muloqot qolib, planshet, telefon yoki smartfon orqali boshqalar bilan muloqotga kirishishi odatiy holga aylanmoqda.

Internet-makondagi virtual muloqotning xususiyatlaridan biri shundaki, u shaxsga anonim sifatida qolish imkonini beradi. Bunday anonimlik, bir tomondan, insonga o'z fikrlarini erkin bayon etishda qo'l kelmoqda. Ikkinchi tomondan esa, anonimlik shaxsning muloqot chog'idagi axloqiy mas'uliyatini zaiflashtirmoqda. Aynan shuning uchun ijtimoiy tarmoqlarda boshqalarni haqorat qilish, kamsitish, yolg'on ma'lumotlar berish hollari ko'plab uchraydi. Internet-makondagi virtual muloqot chog'ida tuhmat va haqorat hollari shu qadar ko'paydiki, turli mamlakatlar uning uchun javobgarlikni kuchaytirishga qaror qildilar. Masalan, Yaponiya parlamenti 2022 yilning 13 iyun kuni ijtimoiy tarmoqlarda haqoratga uchragan boshlovchining o'z joniga qasd qilishi fonida onlayn haqorat uchun qamoq jazosi tayinlash mumkin bo'lgan qonunni qabul qildi<sup>21</sup>. O'zbekistonda ham Jinoyat kodeksining 139-140 moddalariga internet tarmog'i axborot resurslari orqali tuhmat va haqorat uchun javobgarlik biriktirilmoqda<sup>22</sup>.

Anonimlik virtual muloqotning yagona xususiyati emas. Aksariyat hollarda bunday tarzda kechgan muloqot o'zining mavzusizligi bilan tavsiflanadi. Mavzusiz muloqot shaxsga o'zgaralar bilan ma'lumotlar, qadriyatlar almashinishga imkon qoldirmayapti. U shunchaki bo'sh vaqtni maqsadsiz o'tkazish shakllaridan biri bo'lib qolmoqda. Ba'zi pallalarda bunday virtual muloqot shaxsga o'z xizmat vazifalarini to'laqonli ado etishga xalal bermoqda. Eng tashvishlanarlisi, bunday mavzusiz virtual muloqot davomiyligi internet-tobelikni kelib chiqarmoqda. Internet-tobelik – internetga ulanish istagining kuchliligi va uni o'z vaqtida tark etish irodasining yetishmasligidir<sup>23</sup>. Uni maxsus tadqiq qilgan psixologlar internet-tobelikni ruhiy xastalikning bir ko'rinishi sifatida

<sup>21</sup> Қаранг: Японияда онлайн ҳақорат учун қамоқ жазоси белгиланди.// [bugun.uz](http://bugun.uz), 2022, 15 июнь.

<sup>22</sup> Тухмат ва ҳақорат учун жазони енгиллаштириш тўғрисидаги қонун лойиҳаси эълон қилинди.// [gazeta.uz](http://gazeta.uz), 2020, 16 январь.

<sup>23</sup> Қаранг: Денисов А. Психология интернет-зависимости.// Развитие личности, 2014, №1.- 191-с.



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



ifodalamoqdalar. Masalan, Amerika psixologik Assotsiatsiyasi uni “Ruhiiy xastalıklar diagnostikasi va statistikasi bo‘yicha yo‘riqnomaga” kiritgan<sup>24</sup>. Ayrim mamlakatlarda kishilarni internet-tobelik illatidan davolash choralari ko‘rilmoqda. Jumladan, Xitoyda 2005 yilda bunday xastalikka yo‘liqqan kishilarni davolovchi birinchi klinika ish boshladi<sup>25</sup>. Afsuski, axborot asrida internet-tobelik xastaligi O‘zbekiston fuqarolari, ayniqsa o‘zbek yigit va qizlari orasida ham uchramoqda.

*Ikkinchidan*, internet-makonning ayrim kontentlari jamiyat a‘zolarining kognitiv qobiliyatlarini zaiflashtirmoqda. Ma‘lumki, kognitiv qobiliyatlar deganda insonning borliq shakllariga doir ma‘lumotlar va axborotlarni o‘zlashtirish, saqlash va qayta ishlash bilan bog‘liq malakalari yig‘indisi nazarda tutiladi. Sirasini aytganda, insoniyatni boshqa tirik mavjudotlardan tafovutlab turgan, kishilik jamiyati madaniyatini vujudga keltirgan asosiy manbalardan biri ham aynan kognitiv qobiliyatlardir.

Internet-makonning shakllanishi inson kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish uchun zamin hozirlagani rost. U avvalo yangi bilimlarni o‘zlashtirish, uni ommalashtirish imkoniyatlarini kengaytirdi. Internet sharofati bilan turli sohalarga doir axborotlarni jamlash, ishlab chiqarish, saqlash, takomillashtirish, uzatish ancha yengillashdi. Endilikda biror bir obyektни o‘rganish uchun zarur bo‘lgan bilim va ma‘lumotlarni izlashga ko‘p vaqt ketmayotir. Internet-makon kontentlari obyektlarning turfa atributlarini tadqiq qilish uslubiyotini ham takomillashtirdi.

Biroq, ikkinchi tomondan, tobora ko‘proq olim va mutaxassislar internet-makon kontentlari inson kognitiv qobiliyatlariga salbiy ta‘sir ko‘rsatayotganini qayd qilmoqdalar. Masalan, rus olimasi L.Bobrova internet-makon resurslari bolalarning ham, o‘smirlarning ham, yetuk yoshdagi kishilarning ham, internetdan foydalanayotgan keksalarning ham ma‘lumot-larni o‘zlashtirish, saqlash va qayta ishlash bilan bog‘liq malakalarini tubdan o‘zgartirayotganini ta‘kidlaydi<sup>26</sup>. Uning fikriga ko‘ra, internetda turli ma‘lumotlarning jamlanganligi ularni xotirada saqlash zaruriyatini yo‘qotmoqda. Darhaqiqat, istalgan ma‘lumotni istalgan paytda internet saytlaridan izlab topish imkoni bo‘lganida, uni eslab qolishga nima hojat? Biroq bunday imkoniyat odam bolasining ma‘lumotni eslab qolish qobiliyatlarini zaiflashtirmoqda. Buning ustiga, internet-makonda ja‘m bo‘lgan ma‘lumotlarning aksariyat qismi biror bir tekshiruvdan o‘tkazilmagan, ularning haqqoniyligi darajasi ham aniqlanmagan. Bunday ma‘lumotlarning muttasil “hazm” qilinishi inson tanqidiy tafakkurini so‘ndirmoqda. Qizig‘i shundaki, axborot va ma‘lumotlar hajmi orta borgani sayin hatto shunday tekshirilmagan ma‘lumotlarni izlab topish uchun ham ancha-muncha vaqt ketmoqda. Natijada internet vositasida amalga oshirilgan aqliy

<sup>24</sup> Қаранг: ўша ерда.- 192-с.

<sup>25</sup> Қаранг: ўша ерда.- 192-с.

<sup>26</sup> Қаранг: Боброва Л.А.. Компьютер, интернет и мышление: изменение мышления под влиянием современных технологий.// Социальные и гуманитарные науки. Отечественная и зарубежная литература. Сер. 3, Философия: Реферативный журнал, 2019, №2.- 72-80-с.



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



faoliyatning salmoqli qismi ma'lumot ustida fikr yuritishga emas, uni qidirishga sarf bo'lmoqda<sup>27</sup>.

Olima internet-makon kontentlari tafakkur fragmentatsiyasiga sabab bo'layotganini ham ko'rsatib o'tadi. Gap shundaki, internet aksariyat hollarda obyekt haqidagi tizimli bilimlarni emas, uning xususidagi ma'lumotlarning fragmentlarini taqdim qiladi. Foydalanuvchi qaysi so'z yoki gaplarni qidiruvga bergan bo'lsa, internet shu so'z va gaplarga mos ma'lumotlar bilan tanishish imkonini beradi. Oqibatda shaxs obyekt haqida yaxlit bilimlarga emas, bor-yo'g'i fragmentar tasavvurga ega bo'ladi, xolos<sup>28</sup>. Internetning mazkur nyuansi ayniqsa mutaxassis sifatida shakllanayotgan, tahsil olayotgan yoshlar uchun o'ta xavfli. Uning oqibatida bo'lg'usi mutaxassisda professionalizmning shakllanishi sekinlashadi, uning o'rnini esa diletantizm egallaydi.

Maqolada internetdagi ma'lumotlarning turli-tumanligi, uning shiddat bilan ko'payib borayotgani diqqatni bir mavzuda jamlash imkonini kamaytirayotgani ko'rsatib o'tiladi. Turli-tuman, uzuq-yuluq ma'lumotlar diqqatni chalg'itadi, muttasil bir mavzudan boshqasiga o'tib turishni taqozo qiladi. Buning natijasida inson jiddiy mavzularda uzoq muddat mantiqan fikr yuritish imkoniyatlaridan mahrum bo'ladi<sup>29</sup>. Diqqatni bir joyda jamlash, aniq mavzu ustida muttasil va mantiqan fikrlash imkoniyati bo'lmas ekan, insonning ma'lumot va axborotlarni o'zlashtirish, saqlash va qayta ishlash malakasi ham yemirila boradi.

*Uchinchidan*, internet-makonning ayrim kontentlari insonda axloq normalariga zid xulqni shakllantirmoqda. Insonni axloqsiz hatti-harakatlarga undovchi, bunday sa'y-harakatlarni targ'ib qiluvchi saytlar ko'payganidan ko'payib bormoqda. Mazkur saytlar ta'sirida jamiyatning ayrim a'zolari o'z xulq-atvorlarini axloq tamoyillari bilan o'lchamay, unga amal qilmay qo'ymoqdalar. Bu o'rinda ayniqsa tobora ko'payayotgan pornografik saytlarning xavfi katta bo'lmoqda. Afsuski, milliy segmentda ham ko'plab shunday saytlar mavjud. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatida ma'lum qilinishicha, milliy domen makonida 289 pornosayt va 91 ta axloqsizlikni targ'ib qiluvchi veb-sayt topilgan<sup>30</sup>. Pornografik saytlarning ijtimoiy xavfi shundaki, ular orqali pornografik materiallarning tarqatilishi jinsiy axloq qoidalarini buzadi hamda o'smirlarni to'g'ri jinsiy tarbiyalashga xalal beradi. Bu saytlar ta'sirida yoshlarning ham, yetuk kishilarning ham axloqiy degradatsiyasi sodir bo'ladi, ularning ijtimoiylashuvi jarayoni negativ yo'nalishda kecha boshlaydi<sup>31</sup>.

Axloq normalariga zid xulq-atvorning shakllanishiga seksual xizmatlarni taklif qiluvchi saytlar ham sabab bo'lmoqda. Odatda mazkur saytlar kishilarni yolg'izlikdan xalos qiluvchi,

<sup>27</sup> Қаранг: Боброва Л.А.. Компьютер, интернет и мышление: изменение мышления под влиянием современных технологий.// Социальные и гуманитарные науки. Отечественная и зарубежная литература. Сер. 3, Философия: Реферативный журнал, 2019, №2.- 72-80-с.

<sup>28</sup> Қаранг: ўша ерда.

<sup>29</sup> Қаранг: ўша ерда.

<sup>30</sup> Қаранг: Сенат подсчитал количество порносайтов в Узнете.// uz.sputniknews.ru, 2022, 1 февраля.

<sup>31</sup> Қаранг: Миллерова Е.А. Общественная опасность порнографии.// Юристь - Правовець, 2007, №5.- 106 с.



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



kutilmagan sarguzashtlarga guvoh qiluvchi romantik saytlar sifatida taqdim qilinadi. Masalan, bez-komplek-sov.com, chocoapp.ru, pure.app, coomeet.com, chistosex.me kabi saytlar jamiyat a'zolarini majburiyatlardan xoli jinsiy aloqalarga chorlaydi. Tashvishlanarlisi shundaki, ularning xizmatidan foydalanuvchi yoshlar ko'pligicha qolmoqda. Birgina sexbook.ru servisida 30 milliondan ortiq yigit va qizlar anketalarining jamlangani shundan dalolat beradi<sup>32</sup>. Mazkur saytlar ta'siriga tushgan yigit va qizlar oilaviy qadriyatlardan chekinmoqdalar, oilani inson hayoti uchun muhim bo'lgan institut sifatida qabul qilmay qo'yayaptilar. Bundan tashqari, bunday kishilarning o'zga jins vakillariga munosabati ham axloqsiz tus olmoqda.

Keyingi yillarda erotik hikoyalar kutubxonasi sifatida taqdim etilayotgan saytlar ham paydo bo'la boshladi. Bunday saytlarda nafaqat erotik hikoyalar, balki mutlaqo axloqsiz xarakterga ega bo'lgan she'rlar, suratlar, hatto eriga yoki xotiniga xiyonat qilish yo'llariga doir tavsiyalar, hayvonlar bilan jinsiy aloqa qilishga oid maslahatlar ham jamlangan. Birgina www.xxxlib.ru saytida bunday materiallar 37 bo'limga bo'lib taklif etiladi<sup>33</sup>. Mazkur materiallar insonning axloqqa zid normalarni yoki ongi, yoki ongsiz ravishda o'zlashtirib qo'yishiga zamin yaratmoqda.

Qisqa videomateriallarni tasvirga olish va tomosha qilishga mo'ljallangan "TikTok" servisi ham ayrim hollarda axloqsiz xulqni shakllantirish va ommalashtirish omili bo'lib qolmoqda. Umuman olganda, servis neytral mazmunga ega bo'lgan, turli shaxslar ijodi namunalarini namoyish etadigan ijtimoiy tarmoq sifatida 2016 yilda Xitoyda vujudga kelgandi. U juda jadal faollashdi - qisqa muddatda undan foydalanuvchilar soni 800 milliondan ortib ketdi<sup>34</sup>. Biroq tez orada uning kontentlari orasida axloq normalariga zid bo'lgan materiallar nihoyatda ko'payib ketdi. Bu materiallar jamiyatda e'tirof etilgan axloq normalariga e'tiborsizlikni targ'ib qilmoqda, odob qoidalarining oddiy buzilishini ijod namunasi sifatida ko'rsatmoqda. Bunday namoyish jamiyat a'zolari uchun nomaqbul o'rnak vazifasini o'tamoqda, ularni asotsial hatti-harakatlarga undamoqda. Masalan, Misrda 2020 yilda "TikTok" ilovasida odobsiz videolar joylash-tirganligi uchun besh ayol ikki yilga ozodlikdan mahrum qilingan va qariyb 19000 AQSH dollari miqdorida jarima to'lashga hukm qilingan. Bunga qadar mazkur materiallarni uch milliondan ziyod tomoshabin ko'rib ulgurgan<sup>35</sup>. Keyingi yillarda O'zbekistonda ham "TikTok" ancha faollashdi. Uning xizmatidan asosan o'smirlar va yoshlar foydalanmoqdalar. Lekin tarmoqda jamlangan videomateriallarning aksariyat qismi axloqqa zid bo'lgan hatti-harakatlar namoyishidan o'zga narsa emas.

*To'rtinchidan*, internet-makonning ayrim kontentlari shaxsni turli ijtimoiy illatlarga tobe qilib qo'ymoqda. Yangi asrga kelib, internet onlayn-o'yinlarni faol amalga oshirish vositasiga aylandi. To'g'ri, onlayn-o'yinlarni taqdim qiluvchi saytlar XX asrda ham mavjud

<sup>32</sup> Қаранг: Топ-10 сайтов для секса без обязательств.// intrigue.dating.

<sup>33</sup> Қаранг: [www.xxxlib.ru](http://www.xxxlib.ru).

<sup>34</sup> Қаранг: Тик-ток ҳақида 10 статистика.// [www.terabayt.uz](http://www.terabayt.uz), 2020, 4 июнь.

<sup>35</sup> Қаранг: Одobsиз видеолари учун қамoққа тушган блогер қизлар.// azon.uz, 2020, 29 июль.



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



edi. Biroq aynan yangi asrda ular qimor tikib o'ynashni agressiv reklama qilishga va shu yo'l bilan foydalanuvchilarni qimor o'yinlariga jalb etishga kirishdilar. Bugungi kunda internet-makonda yuzlab shunday saytlarni uchratish mumkin. Ularning barchasi onlayn o'yinni sport turlaridan biri, o'zlarini esa sport o'yinlarini targ'ib qiluvchi subyekt sifatida e'tirof etadi. Qizig'i shundaki, bunday saytlar ko'paygani sayin telefon, smartfon, planshet, noutbuk, kompyuterlar ishlab chiqaruvchi kompaniyalar o'z mahsulotlarini SegaNet, PlayStation, Xbox kabi gadjetlarni kiritgan holda sota boshladilar. Shu tariqa turli jamiyat a'zolari ommaviy ravishda qimor o'yinlariga jalb etila boshlandi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, bugungi kunga kelib, internet-makonning ayrim kontentlari negativ ijtimoiylashuvning vujudga kelishiga sabab bo'lmoqda. Ular shaxs tomonidan salbiy xarakterdagi ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirishga imkon yaratmoqda. Buni internet-makonning ayrim kontentlari jamiyat a'zolari o'rtasida kechadigan muloqotga virtual tus berayotganida, ularning kognitiv qobiliyatlarini zaiflashtirayotganida, axloq normalariga zid xulqni shakllantirayotganida, turli ijtimoiy illatlarga tobe qilib qo'yayotganida, ba'zi jamiyat a'zolarining jinoyat yo'liga kirishiga sabab bo'layotganida, g'ayriinsoniy g'oyalar ta'siriga tushirayotganida, bo'sh vaqtini behuda o'tkazishga ko'niktirayotganida ko'rish mumkin. Internet-makon kontentlari negativ ijtimoiylashuvga sabab bo'layotgani uning odini olish yo'llarini izlab topishni muhim ijtimoiy vazifalardan biriga aylantirmoqda.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Акрамова Ф.А. Ижтимоий психология.- Т., 2007.
2. Андреева И. М. Информационная культура личности как новая учебная дисциплина и новое направление культурологических исследований.// Информатизация и проблемы гуманитарного образования: Тезисы докл. Между-нар. науч. конф.- Краснодар, 1995.- С. 6-8.
3. Nurillaevich, Omonov Bahodir, et al. "Factors Of The Formation Of Ecological Culture In The Education And Training System." *Journal of Pharmaceutical Negative Results* (2022): 984-989.
4. Nomozov, Xurshid. "INTERNET-MAKON RESURSLARIDAN FOYDALANISH SOHALARI." *Development and innovations in science* 2.7 (2023): 8-14.
5. Nomozov, Xurshid. "INTERNET-MAKON MOHIYATI, GENEZISI VA ZAMONAVIY TARKIBI." *Farg'ona davlat universiteti* 3 (2023): 67-67.
6. Номозов, Х. "ИНТЕРНЕТ-МАКОН ТАЪСИРИДА СОДИР БЎЛАЁТГАН НЕГАТИВ ИЖТИМОЙЛАШУВ ШАКЛЛАРИ." *Философия и право* 26.3 (2023): 232-235.
7. Shavkat o'g'li, Nomozov Xurshid. "ИНТЕРНЕТ-МАКОН ИМКОНИЯТЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШДА АХЛОҚИЙ МАДАНИЯТНИНГ АҲАМИЯТИ." *The Role of Exact Sciences in the Era of Modern Development* 1.3 (2023): 4-9.



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



8. Shavkat o'g'li, Nomozov Xurshid. "YUKSAK AXBOROT MADANIYATI-INTERNET-MAKON RESURSLARIDAN RATSIONAL FOYDALANISH SHARTI." *Research Focus International Scientific Journal* 2.6 (2023): 105-110.

9. Shavkat o'g'li, Nomozov Xurshid. "AXBOROT XURUJINING O 'SMIRLAR HAYOTIGA TA'SIRI." *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI* (2023): 1285-1287.

10. Shavkat o'g'li, Nomozov Xurshid. "YOSHLARDA MA'NAVIY-MAFKURAVIY IMMUNITETNI MUSTAHKAMLASHDA INTERNETNING ROLI." *PHILOSOPHY AND LIFE INTERNATIONAL JOURNAL* 3 (18) (2022).

